



Tadbirkorlik Faoliyatini Samarali Boshqarishning O`zbekiston Iqtisodiyotida Tutgan O`Rni

Doniyorbek Anvarjan O`G`Li Boymirzayev

TOSHKENTDAGI KIMYO XALQARO UNIVERSITETI

MBA FAKULTETI MAGISTRANTI

ILMIY RAHBAR: *Shodiyabonu Xodjayeva PhD, Dotsent*

ANNOTATSIYA

Maqolada tadbirkorlik tushunchasi va O`zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini samarali boshqarish va uning iqtisodiyotda tutgan o`rni, yurtimizda tadbirkorlik faoliyati rivoji uchun yaratilayotgan imkoniyatlar hamda tadbiriq etilishi lozim bo`lgan takliflari haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: *tadbirkorlik subyektlari, kichik biznes, iqtisodiyot, samarali boshqaruv, imkoniyatlar.*

Роль Эффективного Управления Бизнесом В Экономике Узбекистана

Doniyorbek Anvarjan O`G`Li Boymirzayev

Международный Химический Университет В Ташкенте

Магистр Факультета Бизнес Администрации

Научный Руководитель: *Shodiyabonu Xodjayeva Phd, Dotsent*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается понятие предпринимательства и эффективного управления предпринимательством в Узбекистане и его роль в экономике, возможности, созданные для развития предпринимательства в нашей стране, а также предложения, которые следует реализовать.



Ключевые слова: субъекты предпринимательства, малый бизнес, экономика, эффективное управление, возможности.

The Role of Effective Business Management in The Economy of Uzbekistan

Doniyorbek Anvarjan O`G`Li Boymirzayev

KIMYO INTERNATIONAL UNIVERSITY IN TASHKENT

MASTER OF BUSINESS ADMINISTRATION

RESEARCH SUPERVISOR: SHODIYABONU XODJAYEVA PhD, DOTSENT

ABSTACT

The article discusses the concept of entrepreneurship and effective business management in Uzbekistan and its role in the economy, the opportunities created for the development of entrepreneurship in our country, as well as proposals that should be implemented.

Key words: *business entities, small business, economy, effective management, opportunities.*

KIRISH

2017-2021- yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq mamlakatimizda xususiy mulk manfaatlarini ishonchli himoya qilish, tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay imkoniyatlar yaratish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish borasida aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo`llab-quvvatlash davlat jamg`armasini tashkil etish to`g`risida" gi qarori ham xususiy tadbirkorlikni, eng avvalo mikrofirma va kichik korxonalarni moliyaviy qo`llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, ularning jadal rivojlanishi uchun qo`shimcha shart-sharoit yaratish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Barchamizga



ma'lumki davlatning kuch-qudrati—avvalo, demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish, fuqarolar va jamiyatning barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, tadbirkorlik va iqtisodiy tashabbuslar erkinligi uchun zarur imkoniyatlarni tashkil etib berish qobiliyati bilan o'lchanadi. Bugun har birimiz tadbirkorlikning rivojlanishi jamiyatimiz ravnaqi, aholi farovonligini ta'minlash hamda barqaror iqtisodiy hayotni barpo etishning muhim omili ekanligini chuqur his etmoqdamiz. Jahon amaliyoti ham shuni ko'rsatadiki, rivojlangan va rivojlanayotgan ko'plab mamlakatlarda iqtisodiyotning yuksalishiga, asosan, kichik va xususiy biznes sub'ektlari faoliyatini rivojlantirish orqali erishilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadbirkorlik faoliyatini samarali boshqarish hamda uning iqtisodiyotda tutgan o'rnini mavzusida ko'plab olim va professorlar bir qancha tadqiqotlar o'tkazishgan. O'zbek olim va olimalari, jumladan, D.V.Rasulova, I.Xotamov va X.S.Asatullayev o'zlarining "Biznesni tadqiq etish usullari" kitobida iqtisodiyotda boshqaruv tizimi eskirgani, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali mexanizmlarni o'z vaqtida joriy qilinmagani, shu boisdan innovatsion yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investitsiyadan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega ekanligi borasida o'z fikrlarini bayon etishgan. [D.Rasulova, 2021]

Yana bir o'zbek olimi Q.Isayev o'zining "Xalqaro iqtisodiyot" nomli kitobida O'zbekiston Jahon Savdo Tashkiloti (JST) ga a'zo bo'lishidagi muammolar haqida gapirib o'tgan. Jumladan, O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish natijasida Xitoy Xalq Respublikasi tajribasida bo'lgani kabi ishsizlar soni ko'payib ketishiga hamda subsidiyalar asosida moliyalashtiriladigan mashinasozlik va dehqonchilik kabi tarmoqlar ahvolidagi yomonlashuvini kutish mumkin. Mamlakat yirik tarmoqlarining bu jarayonga tayyor emasligi, chunki yirik tarmoqlar ishlab chiqarayotgan mahsulot narxi, jahon bozoridagi narxdan yuqori ekanligini bayon qilgan. [Q.Isayev, 2021]



Tadbirkorlik-yangi imkoniyatlarni qidirish, yangi texnologiyalarni qo'llash jarayoni, kapital qo'yishning yangi soxalarini topish, eskicha sarqitlar va chegaralardan voz kechish, ishlab chiqarish omillarining uch asosiy tarkibiy qismini bog'lashning eng maqbul usullarini topishdir" deya ta'rif beradi Egamberdiev.F.T, Abdullayev.S.A hamda Mambetjonov.K.K o'zlarining Iqtisodiyot Nazariyasi kitoblarida [2021].

O'zbekiston Moliya instituti dotsenti Sh.Xodjayeva o'zining "Biznes boshqaruvi" nomli o'quv qo'llanmasida tadbirkorlik sohasida biznes foyda beradigan iqtisodiy faoliyat bo'lib, ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar biznesmen sifatida mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashga, yalpi ichki mahsulotning ko'payishiga, aholi faravonligining oshishiga xizmat qiladi deya tadbirkorlik va biznes tushunchalariga ta'rif bergan. [Sh.Xodjayeva, 2023]

Garvard universiteti professori G.Mankiw o'zining "Iqtisodiyot Prinsiplari" kitobida bozordagi raqobatga shunday ta'rif bergan-Ko'pchilik Amerika va Yaponiya o'rtasidagi raqobat haqida eshitgan bo'lsa kerak. To'g'ri Amerika va Yaponiya kompaniyalari ko'plab bir xil turdagi mahsulotlar ishlab chiqaradi. Toyota va Ford kompaniyalari bir xil haridorlar uchun avtomobil ishlab chiqarishadi, yoki bo'lmasam, Apple va Sony kompaniyalari ham haridorlar uchun musiqiy uskunalarni ishlab chiqarishadi. Bu musobaqa sportga o'xshab bir taraf g'alaba qozonadi va ikkinchi taraf mag'lub bo'ladi ma'nosida emas, balki ikki davlat o'rtasidagi savdo har bir davlatni rivojlantiradi va rivojlantirdi ham. [G.Mankiw, 2009]

Arizona universiteti professorlari S.Robbinson va M.Coulter o'zlarining "Management" kitoblarida menejmentga quyidagicha ta'rif berishgan: "Boshqalarning faoliyati samarali va sermahsul bo'lishi uchun, ularning bajarayotgan ishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish" [S.Robbinson, M.Coulter 2018]

Quyidagilarni barchasini hisobga olgan holda bizningcha tadbirkorlik bu-aholiga qulaylik yaratish hamda ularning manfaatlarini o'ylagan holda, qonun doirasida faoliyat yuritishdir.



METODOLOGIYA

Ushbu ilmiy maqolaning nazariy qismida, analitik-tahlil, qiyosiy-tahlil, induksiya-deduksiya hamda tadbirkorlik faoliyatini samarali boshqarishning iqtisodiyotimizda tutgan o`rni yoritilgan. Tadqiqotimizda, ikkilamchi axborot sifatida Savdo Sanoat Palatasi, Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi, Statistika Agentligi, Jahon Banki hamda tegishli mutasaddi tashkilotlar rasmiy ma`lumotlariga tayangan holda yoritilgan.

ASOSIY QISM

O`zbekistonda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining barqaror iqtisodiy o`shirishini ta`minlash, aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan. Aholining ish bilan bandligi va turmush farovonligini oshirishda kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bunga sabab kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar hal etiladi: birinchidan, ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to`ldirish, iqtisodiyot-tarkibiy tuzilishini o`zgartirishning, yangi ish o`rinlarini yaratishning, aholi bandligini va daromadlarini oshirishning muhim omili bo`lib xizmat qilish. Ikkinchidan, kam sarmoya talab qilish orqali ishlab chiqarishni tez modernizatsiya qilish, ishlab chiqarilayotgan va ko`rsatilayotgan xizmat turlarini yangilash. Shu boisdan mamlakatimizda mustaqillik yillarida xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlarini yaratish, ular huquqini himoya qilish borasida qonunchilikni mustahkamlash, bozor infratuzilmasini shakllantirishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi. Hozirgi kunda yurtimizda 590 mingdan ziyod tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritmoqda va bu ko`rsatkich yil sayin oshib borishi uchun esa tadbirkorlar uchun qulay sharoit, odilona raqobat muhitini yaratishdan tashqari samarali boshqaruv usullari haqida foydali treninglar tashkil etish orqali bo`ljak tadbirkorlarni o`qitish ham muhim ahamiyatga egadir. Chunki ma`lumotlarga qaraganda, 2025-yil yakunigacha Yalpi Ichki Mahsulot hajmini 100 milliard AQSh dollariga, yillik exportni esa 30 milliard AQSh dollariga yetkazish maqsad qilingan.



Tadbirkorlik iqtisodiy kategoriya bo'lib, u xo'jalik yuritish usuli, iqtisodiy faoliyat turidir. Tadbirkorlik sub'ektlari turlichadir: ular-yakka xususiy tadbirkorlar, jismoniy shaxslar, korxonalar, tashkilotlar, ular nomidan ish yurituvchi yuridik shaxslar, hissadorlik jamiyatlari, jamoalari, shuningdek davlat korxonalarini tadbirkorlik asosida faoliyat yuritayotgan bo'lsa sub'ekti bo'lishi mumkin. Ammo davlatning tadbirkorligining tartibi va unga amal qilinishi nazorati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlari, xodimlari tadbirkorlik sub'ekti bo'la olmaydi. Chunki daromad olish uchun sarmoyadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lganlar tadbirkorlikning real sub'ekti bo'la oladilar.

2023-yil 30-aprel kuni yurtimizda umumxalq referendum o'tkazildi hamda bosh qomusimizga qator o'zgarishlar kiritildi. Jumladan tadbirkorlik faoliyati ham chetda qolmadi va qonun bilan mustahkamlandi. Yangi Konstitutsiyaning 67-moddasida: Davlat-qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi. Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga xaqlidir. O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi. Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi.¹ 2016-yilda qariyb 33 mingta yangi korxonalar tashkil etilgan bo'lsa, 2021-yilda ularning soni 103 mingtadan oshdi (o'sish 3,1 baravar).

So'nggi 5 yil ichida tadbirkorlar soni uch baravar ko'paydi va hozirda 1,5 mln kishini tashkil etadi, xususiy sektor korxonalarida esa 5 mlnga yaqin kishi mehnat qilmoqda.

2022-yil yakunlari bo'yicha kichik biznesda jami 121 746 ta erkaklar, 6 359 ta ayollar rahbarlik qilayotgani [ma'lum qilindi](#).

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yilning 22-avgust kuni tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o'tkazdi. Davlatimiz rahbari, avvalo, o'tgan yilgi uchrashuvdan beri bajarilgan ishlar haqida qisqacha to'xtalib o'tdi. Jumladan, biznes muhit yaxshilangani natijasida o'tgan bir yil davomida tadbirkorlar tomonidan 55 mingdan ortiq biznes uchun binolar qurilgan. Tushumlari 1 million

¹ <https://lex.uz/docs/-6449095> 67-modda



dollardan oshgan tadbirkorlik sub'ektlari soni 5 mingtaga ko'payib, 26 mingtaga yetgan. Yana 1000 nafari tovar aylanmasini 1 milliondan 10 million dollargacha yetkazgan, 220 nafarining tushumlari esa 100 million dollarga yetgan. Eksport qiluvchi korxonalar soni 7500 ta bo'lgan, umumiy eksport hajmi 30 foizga ko'paygan.² Uchrashuv natijalariga ko'ra yurtimizdagi tadbirkorlik faoliyati 4 turga ajratildi.

Yillik aylanma mablag'i 1 milliard so'mgacha bo'lgan korxonalar- mikro biznes, 10 milliard so'mgacha bo'lgani- kichik biznes, 100 milliardgacha bo'lgan korxonalar o'rta biznes hamda 100 milliard so'mdan ortiq bo'lgan korxonalar esa yirik biznes toifasiga kiritildi. Shundan kelib chiqib, 2023-yilning 1-yanvaridan e'tiboran mikro biznes uchun aylanmadan olinadigan amaldagi 4% dan 25% gacha bo'lgan stavkalar o'rniga, yagona 4% soliq stavkasi joriy etildi. Prezidentimiz oldingi ochiq muloqotlarda, qo'shilgan qiymat soliq stavkasini ham pasaytirish rejada ekanligini qayd etgan edi. Pandemiya keltirib chiqargan iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, 2023-yilning 1-yanvaridan QQS (qo'shilgan qiymat solig'i) stavkasi joriy 15% dan 12% foizga tushirildi. Umuman olganda Prezidentimiz amalga oshirgan ochiq muloqotlar natijasiga to'xtaladigan bo'lsak, o'tgan 1 yilda kichik tadbirkorlar soni 40 mingtaga ko'paygan, o'rta bizneslar soni 2 mingtaga oshib, 10 mingtaga yetgan. Yirik korxonalar soni esa 400 taga ko'payib 1.5 mingtaga yetgan.

Shu yilning 18-avgust kungi Prezidentimiz tomonidan o'tkazilgan yig'ilishda, yurtboshimiz tadbirkorlarni qiynayotgan yana bir masalaga to'xtalib o'tdi. Soliq ma'murchiligini soddalashtirish, yo'q qilish masalasida, korrupsiya bilan bog'liq shikoyatlar ko'payib ketgani bois, qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarishda soliq uzilishi koeffitsiyentini qo'llash amaliyoti (TAX GAP) tizimi mutlaqo adolatsiz ekani qayd etildi hamda 2023-yil 1-oktyabrdan boshlab ushbu tizim bekor qilindi. Ushrashuv yakunida, Prezidentimiz: "Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida har bir yil ulkan dastur va loyihalarni amalga oshirish davri bo'lib qolmoqda. Hayot sinovlarida toblangan, mard va

² <https://www.president.uz/oz/lists/view/5449>



tashabbuskor tadbirkorlarimiz bor ekan, biz albatta ko'zlagan marralarimizga erishamiz" deya yakun yasadi.³

Rivojlangan davlatlarda biznesning o'rni. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati haqida gapirar ekanmiz, bu borada 2000-yilning iyun oyida Italiyaning Boloniya shahrida 46 mamlakat ishtirokida o'tkazilgan konferensiyada qabul qilingan-Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash siyosati bo'yicha Boloniya shartnomasida konferensiya ishtirokchilari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bir qator jihatlari e'tirof etilgan. Ta'kidlash kerakki, deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy siyosatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratilib, taraqqiyotning asosiy omili sifatida e'tirof etilgan. Jahon amaliyot tajribalari ko'rsatishicha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'zining qator ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari bilan iqtisodiyotda salmoqli o'rin egallashi, sog'lom raqobat muhitini vujudga keltirishi, xususiy korxonalar faoliyatida tadbirkorlikni shakllanishi, bozordagi talab va taklifga samarali ta'sir ko'rsatishi, aholi va ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish orqali o'zining katta salohiyatga ega ekanligini namoyon qilmoqda. O'z navbatida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish darajasi o'sishining va aholi bandligini ta'minlashning muhim manbai hisoblanadi.

Fransiyada mayda va kichik biznes bir-biridan ajratilgan bo'lib, mayda biznes hissasiga barcha korxonalarining 90.3 % va ish bilan band aholining 20 %, kichik biznes hissasiga esa barcha ish bilan band aholining 47.9 %i to'g'ri keladi. Sanoatda yangi korxonalarining 97 %i kichik biznesga to'g'ri kelmoqda.

AQShda 33.2 million kichik biznes subyekti mavjud va Qo'shma Shtatlardagi barcha bizneslarning 99.9 %i kichik biznesga tegishlidir. 1995-2021 yillar oralig'ida yaratilgan ish o'rinlarining 63 % I kichik biznes hissasiga tog'ri kelgan⁴

³ <https://www.president.uz/oz/lists/view/6558> 18.08.2023dagi ochiq muloqotdan

⁴ <https://www.uschamber.com/small-business/state-of-small-business-now#:~:text=Small%20businesses%20is%20generally%20defined,of%20America's%20private%20sector%20workforce>




Buyuk Britaniyada 2023-yil hisobiga ko`ra, 5.56 million xususiy tadbirkorlik subyektlari mavjud va bu ko`rsatkich 2020-yil (5.98 million) dan pastligicha qolmoqda. Biroq 5.56 million biznes subyektlari hamon o`lkadagi barcha bizneslarning 99.9 % ini tashkil etmoqda.⁵

Germaniyada 2021-yil hisobotiga 3.37 million kichik va o`rta biznes subyektlari ro`yhatga olingan va jami bizneslarning 99.3 % ini band qilgan. Taxminan 19 milliondan ortiq odam ish bilan ta`minlangan va mamlakatdagi jami ish bilan band aholining 54% i ish bilan band.⁶

Umuman olganda kichik sanoat korxonalarini xalqaro federatsiyasining xisob-kitoblariga ko`ra, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 50 %, kapital qo`yilmalarning 30%i kichik korxonalar hissasiga to`g`ri keladi. Yuqorida sanab o`tilgan mamlakatlarda ish o`rinlarining 2/3 qismi kichik biznes hisobiga yaratiladi hamda barcha ish bilan band bo`lganlarning yarmidan ko`pi mayda va kichik korxonalarda ishlaydilar.

Tahlil va muhokamalar natijasi. 2023-yil 1-yanvar holatiga yurtimizda jami faoliyat ko`rsatayotgan tadbirkorlik sub`ektlari (*fermer va dehqon xo`jaliklarisiz*) **592 371** tani tashkil etadi. Faoliyat ko`rsatayotgan tadbirkorlik sub`ektlari soni bo`yicha Top-5 hududlar quyidagicha kuzatilgan:

1-Jadval. Tadbirkorlik sub`ektlari hududlar kesimida



⁵ <https://startups.co.uk/analysis/small-business-statistics/>


⁶ <https://www.ifm-bonn.org/en/statistics/overview-mittelstand/macro-economic-significance-of-smes/deutschland#:~:text=In%202020%2C%20approx%203.35%20million,goods%20and%20services%20and%20For%20employees>



Yuqoridagi jadvaldan ham ko`rinib turibdiki poytaxtimiz Toshkent shaxri bu borada mutloq yetakchi va mos ravishda keying o`rinlarni Toshkent viloyati, Samarqand viloyati, Farg`ona hamda Andijon viloyatlari band qilgan.

Quyidagi jadvalda esa Iqtisodiyot taqmorlar kesimida faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonini ko`rishimiz mumkin.

2-Jadval. Tarmoqlar kesimida korxonalar va tashkilotlarning ulushi



Yuqoridagi jadvaldan ko`rish mumkinki yurtimizda savdo va sanoat mos ravishda birinchi va ikkinchi o`rinda bormoqda.⁷

Tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz qarori [PQ-3225-son, 17.08.2017.] ga asosan O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini qo`llab-quvvatlash Davlat Jamg`armasi tashkil etildi. Bu Jamg`armaning asosiy vazifalaridan, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini va ularning


⁷ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>



tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash sohasida davlat siyosatiga ko'maklashish hisoblanadi.⁸

Jamg'arma keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning 1-dekabr holatiga tadbirkorlar uchun quyidagicha yordam va kafilliklar ko'rsatilgan:

1-Rasm. Tadbirkorlar uchun ajratilgan Jamg'arma mablag'lari



Yuqoridagi rasmdan anglash mumkinki:

- Tadbirkorlarning **46 782** ta loyihalariga tijorat banklari tomonidan ajratilgan **75.626** trln so'm bank kreditlariga
- Jamg'arma tomonidan jami **16.896** trln so'm MOLIYAVIY YORDAM ko'rsatilgan.
- Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan jami **376 040** ta yangi ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan⁹

⁸ <https://lex.uz/docs/-3311603> PQ-3225-son qaroridan

⁹ <https://statefund.uz/uz/>



Ushbu maqolaning ob`ekti sifatida Namangan viloyatidagi tadbirkorlik bilan shug`ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar tanlab olindi. Viloyatdagi tadbirkorlik subyektlari, oilaviy korxonalar soni hamda undagi erkaklar va ayollarning ulushlari, tadbirkorlik subyektlarning tarmoqlar kesimidagi ko`rinishlarini tahlil qilindi.

Keyingi yillarda yurtimizning boshqa hududlarida bo`lgani kabi Namangan viloyatida ham tadbirkorlik faoliyatini qo`llab quvvatlash bo`yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Viloyatda asosan sanoat, savdo, xizmat ko`rsatish, qurilish, agrar sohalar jadal rivojlanmoqda.

3-Jadval. Iqtisodiy faoliyat bo`yicha korxonalar va tashkilotlar soni

Yillar	2020y	2021y	2022y	2023y (01.01.2023)
Jami	25909	30882	33422	36914
Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi	1828	2545	2737	3137
Sanoat	5486	6577	7150	7888
Qurilish	1928	2271	2398	2454
Savdo	6938	9065	10307	11718
Tashish va saqlash	966	1058	1107	1215
Yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	1123	1358	1517	1685
Axborot va aloqa	379	455	506	531
Sog`liqni saqlash va ijyimoiy xizmatlar	541	634	695	768
Boshqa turlari	6720	6919	7005	7518

Yuqoridagi jadvalda Namangan viloyatidagi korxonalar va tashkilotlarning 3 yillik ko`rsatkichlari keltirilgan. Jami korxonalar soni 36 914 ta tashkil etgan



bo'lsa, shundan qariyb 11 718 tasi savdo sohasiga to'g'ri kelmoqda. Keyingi o'rinlarni esa sanoat, qishloq va o'rmon xo'jaligi, qurilish, yashash va ovqatlanish, sog'liqni saqlash, aloqa va boshqalar band qilgan.

To'qimachilik sanoati viloyatning asosiy drayver sohalaridan biri hisoblanadi. 2022-yil yakunlari bilan sohaning umumiy sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 37.4 % ni tashkil etdi.

Namangan viloyatida to'qimachilik va tikuv-trikotaj yo'nalishida 2250 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritayotgan bo'lib, ular tomonidan 2022-yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmi 6.8 trln so'mni, export hajmi esa 386 mln Aqsh dollarini tashkil etdi. Shuningdek soha yo'nalishlarida umumiy qiymati 1.3 trln so'mlik 176 ta loyiha amalga oshirilishi natijasida 13619 ta ish o'rni yaratildi.¹⁰

2-Rasm. Yillik bozor hajmi va o'sish sur'ati




Yuqoridagi rasmda Namangan viloyatining 2022-yil yakunlariga ko'ra ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati ko'rsatilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi (2022-yil yanvar-dekabr oylarida)

¹⁰ <https://t.me/nameconomfin> Namangan viloyat Iqtisodiy taraqqiyot bosh boshqarmasi



3-Rasm. Xizmatlar tarkibining ulushlari



Ushbu rasmda viloyatdagi faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibining eng katta ulushi keltirilgan.

2022-yil (yanvar-dekabr) yakuniga ko'ra, savdo xizmatlari tarkibi quyidagicha aks etdi:

5.8 % - Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi hamda ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda;

18.8 % - Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari);

75.4 % - Avtomobil va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar.

So'ngi yillarda yurtimizning har bir hududida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha shaxsan yurtboshimiz boshchiligida sayi-harakatlar amalga oshirilmoqda. Chunki oilaviy tadbirkorlik uzoq yillik tarixga ega va o'zbek an'analariga mos keladigan yo'nalishdir hamda oz miqdorda kapital joriy etib katta marralarga erishish mumkin va bu boshqa ishlab chiqarish kompaniyalardan ancha arzonroqqa tushadi. Davlat esa oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ham tez vaqtda ko'p ish o'rni yaratish, hamda foydalanilmay yotgan resurslardan oqilona foydalanishi mumkin.

Oilaviy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga, aholining ishchanlik faolligini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirishga, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar



to`g`risida” 2023-yil 31-yanvardagi PQ-39-son qarori, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hududlarda mahallabay ishlash asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining doimiy daromad manbalarini ko`paytirish orqali kambag`allikni qisqartirish chora-tadbirlari to`g`risidagi, 2021-yil 9-avgustdagi VM-504-son qarori, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrdagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlari to`g`risi” dagi PQ-55-son qarori, Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarini qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PQ-18-son qarorlari oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi yaratilayotgan imkoniyatlarning dalili desak mubolag`a bo`lmaydi.¹¹

Biroq bugungi kunda yurtimizda 2023-yil 1-noyabr holatiga 46 138 ta oilaviy korxonalar faoliyat yuritmoqda, shundan Namangan viloyati hissasiga 982 ta oilaviy korxonalar to`g`ri kelmoqda.¹² Vaholanki Samarqand viloyatida 8114 dan ortiq, Farg`ona viloyatida 5101 dan ortiq, Xorazm viloyatida esa 5009 dan ortiq oilaviy korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa xunarmandchilik, tikuvchilik yaxshi rivojlangan Namangan viloyati uchun bu ko`rsatkich juda past hisoblanadi. Chunki yaratilayotgan qator imkoniyatlarga qaramay oilaviy tadbirkorlik bilan shug`ullanuvchilarga ayrim chegaralar mavjud:

- Oilaviy tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchilarga zaharli, yuqori bosimli uskunalar, odamlar va atrof-muhitga xavf tug`diruvchi boshqa jihozlarda foydalanishga yo`l qo`yilmaydi;
- Oilaviy ko`rxonalarni ko`p qavatli uyning turar-joylarida ishlab chiqarish xarakteridagi faoliyatini amalga oshirishga yo`l qo`yilmaydi;
- Oilaviy tadbirkorlikning muayyan turi bilan shug`ullanish uchun maxsus ruxsatnoma talab etiladi;

¹¹ <https://lex.uz/search/all?searchtitle=oilaviy%20tadbirkorlik> oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qaror va farmoyishlar

¹² <http://www.namstat.uz/uz/component/search/?searchword=oilaviy%20korxonalar&searchphrase=all&Itemid=232> Statistika agentligining Namangan viloyat boshqarmasi



- Oilaviy korxonalar uchun aksiz solig`i to`lanadigan mahsulotlar ishlab chiqarish hamda yer qa`ridan foydalanilganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olish bilan shug`ullana olmaydi;

Bulardan tashqari oilaviy biznesni keyingi bosqichga olib chiqish ancha murakkabligi, aylanma mablag`ning ortishi, ishchilar sonining ko`payishi bular ortidan foydaning ham ortishi qachondir oilaviy korxonalar nomidan va berilgan imtiyozlardan mahrum qilishi-oilaviy tadbirkorlikka chegaralarning bir turi deb hisoblash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o`rnida shuni e`tirof etish kerakki, davlat tomonidan oilaviy tadbirkorlikka qaratilayotgan e`tibor, berilayotgan imtiyoz hamda yaratilayotgan shart-sharoitlar har qachongidan ham yuqori darajada davom ettirilmoqda. Yuqorida ta`kidlab o`tilgan muammo va kamchiliklardan kelib chiqib davlat oilaviy tadbirkorlik faoliyatini faol qo`llab-quvvatlashni davom ettirishi maqsadga muvofiq. Chunki biroz avval ta`kidlab o`tganimizdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali davlat bir qancha muammolarni osonlik bilan hal etishi mumkin. Oilaviy tadbirkorlikda sanab o`tilgan muammolarni hisobga olib bir nechta takliflarimizni bildirishni lozim topdik;

- Oilaviy tadbirkorlik bilan shug`ullanish istagidabo`lgan talabgorlarga yer bilan bog`liq amaliy yordam berish;
- Chet eldan olib kelinadigan uskuna va anjomlar bo`yicha bojxona to`lovlaridan ozod etish hamda olib kelishga ko`maklashish;
- Oilaviy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish bo`yicha qo`llab-quvvatlash;

Oilaviy tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash bo`yicha quyidagilarni taklif etamiz.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. *O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-avgustdagi Tadbirkorlik faoliyatini qo`llab-quvvatlash Davlat Jamg`armasini tashkil etish to`g`risidagi PQ-3225-son qarori.*



2. *O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasi to`g`risidagi farmoni.*
3. *O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrdagi Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlari to`g`risidagi PQ-55-son qarori.*
4. *O`zbekiston Respublikasi Prezidentining oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarini qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g`risidagi 2023-yil 25-yanvardagi PQ-18-son qarori.*
5. *UDK: 338.24 Sh.Xodjayeva, "Biznesni boshqarish": o`quv qo`llanma. – Toshkent, 2023.-252 sahifa.*
6. *Egamberdiyev F.T., Abdullayev S.A., Mambetjonov K.K. Iqtisodiyot nazariyasi: o`quv qo`llanma. –Toshkent: Tafakkur tomchilari, 2021.-420 sahifa.*
7. *Xalqaro Iqtisodiyot [Matn]: darslik/Q.A.Isaev,-T.: "Ma`naviyat", 2021. - 456 sahifa*
8. *Principles of Economics: fourth edition/ N. Gregory Mankiw, Tsinghua University press 2014, -817 sahifa*
9. *Management, 12th edition, 978-0-13-30436-0 by Stephen P. Robbins and Mary Coulter, published by Pearson Education, Inc., copyright © 2014.*
10. *Principles of Marketing, 15th edition, 9780133084047 by Philip Kotler and Gary Armstrong, published by Pearson Education, Inc., copyright © 2014.*
11. <https://lex.uz/docs/-6449095> O`z.Res Konstitutsiyasining 67-moddasi
12. <https://www.president.uz/oz/lists/view/6558> 18.08.2023dagi ochiq muloqotdan
13. <https://www.uschamber.com/small-business/state-of-small-business-now#:~:text=Small%20businesses%20is%20generally%20defined,of%20America's%20private%20sector%20workforce>
14. <https://startups.co.uk/analysis/small-business-statistics/>



15. <https://www.ifm-bonn.org/en/statistics/overview-mittelstand/macro-economic-significance-of-smes/deutschland#:~:text=In%202020%2C%20approx%203.35%20million,goods%20and%20services%20and%20For%20employees>
16. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>
17. <https://lex.uz/docs/-3311603 PQ-3225-son qaroridan>
18. <https://statefund.uz/uz/ Davlat Jamg`armasi ma`lumotlari>
19. <https://t.me/nameconomfin> Namangan viloyat Iqtisodiy taraqqiyot bosh boshqarmasi
20. <https://lex.uz/search/all?searchtitle=oilaviy%20tadbirkorlik> oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qaror va farmoyishlar
21. <http://www.namstat.uz/uz/component/search/?searchword=oilaviy%20korxonalar&searchphrase=all&Itemid=232> Statistika agentligining Namangan viloyat boshqarmasi